Oliy sud raisining
2024-yil 27-dekabrdagi
283-son buyrug‘iga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi hamda Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti va uning hududiy bo‘limlarida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish bo‘yicha NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda – Qonun) hamda davlat xaridlari to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi hamda Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti va uning hududiy bo‘limlarida (keyingi o‘rinlarda – sud organlari) davlat xaridlarini amalga oshirish (davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish hamda shartnomani tuzish va bajarish) tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizmoda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion – davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezoni bo‘ladi;

davlat xaridlari – sud organlarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta’minlash jarayoni;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma – sud organlari va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

dastlabki malaka tanlovi – xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishga qo‘yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib-taomili;

zaxiradagi g‘olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili – davlat xaridlarini xarid qilish tartib-taomillarining ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchisidan narxlarni so‘rash orqali amalga oshirishning

raqobatli usuli;

tender – davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi;

xarid qilish tartib-taomili – davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui;

elektron do‘kon – davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e’lon – davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga sud organlari tomonidan joylashtiriladigan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot;

g‘olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko‘ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

3. Sud organlarida xarid qilish tartib-taomillarining quyidagi turlari amalga oshiriladi:

elektron do‘kon;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o‘rinlarda – tanlash);

tender;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlar, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Bunda:

eng yaxshi takliflarni tanlash hamda tender turlari sud organlarida tuziladigan xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – xarid komissiya) tomonidan;

elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion (keyingi o‘rinlarda – Auksion), eng yaxshi takliflarni tanlash (summasi bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan, biroq bir moliya yilida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz

baravari miqdoridan oshmasligi kerak), to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishi bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari bo‘yicha xaridlar – sud organlari rahbariyati bilan kelishilgan holda xarid komissiyasining ishtirokisiz xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – xarid bo‘yicha mas’ul xodim) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Oliy sudning budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xaridlar mazkur jamg‘arma mablag‘ining bosh tasarrufchisi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi boshqaradigan Kuzatuv kengashi tomonidan yozma rozilik berilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Xarid komissiyasini tashkil etishning asosiy maqsadi xarid hujjatlarini kelishish, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyrtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solishdan hamda sud organlari tomonidan davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olib(lar)ni tanlashdan iborat.

7. Xarid qilish tartib-taomillarini davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadigan davlat xaridlari elektron tizimining operatori veb-sayti (maxsus elektron platforma)da amalga oshiriladi.

2-bob. Xarid komissiyasi faoliyatini tashkil etish

8. Tanlash hamda tenderni amalga oshirish uchun sud organlarida xarid komissiyasi shakllantiriladi.

9. Xarid komissiyasi tarkibi Oliy sud raisining hamda Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti direktori va departamentning hududiy bo‘lim boshliqlarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi hamda tegishli buyrug‘i bilan tarqatib yuborilishi mumkin.

10. Quyidagilar xarid komissiyasi raisining vazifalari hisoblanadi:

xarid qilish tartib-tamoillarida shaxsan ishtirok etish;

ishrokchilar tomonidan taqdim etilgan tegishli hujjat va takliflarini baholash uchun ovoz berish;

xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolash va e’lon qilish.

Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘rinbosari bajaradi.

11. Quyidagilar xarid komissiyasining vazifalari hisoblanadi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

dastlabki malaka tanlovini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini qonun, qonunchilik hujjatlari va mazkur nizomga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshirmagan deb topadi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligi va tejamkorligini ta’minlash hamda sud organlarida xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

adolatli raqobatni ta'minlash;

g‘olibni aniqlashda suiiste’molchilik qilmaslik va korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

xarid qilish tartib-taomili davomida ma’lum bo‘lgan axborotlarni oshkor qilmaslik.

12. Quyidagilar xarid komissiyasining huquqlari hisoblanadi:

tanlash yoki tender o‘tkazishda ishtirokchilar tomonidan zakalat miqdorini belgilash;

ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov yoki kafolat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi zarurligi to‘g‘risidagi talabni belgilash;

xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma’lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakaga, ishonchliligiga, tajribaga va obro‘ga, shuningdek, inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo‘shimcha mezon va talablarni belgilash;

xarid komissiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Xarid komissiyasining a’zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har

qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Xarid komissiyasining a'zolari:

xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilar huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to'qnashuvi ko'rinishlarini oldini olishi;

har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi;

mavjud bo'lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan taqdirda, bu haqda Oliy sud Kadrlar boshqarmasi Ichki nazorat guruhini xabardor qilishi shart.

14. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan tegishli hujjat va takliflarini baholash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi (keyingi o'rinlarda – mas'ul kotib) tomonidan tashkil etiladi.

15. Quyidagilar ma'sul kotibning vazifalari hisoblanadi:

tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va tarqatish;

xarid komissiya a'zolarini ularning vazifalari bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha xabardor qilish;

xarid komissiya a'zolarini, shuningdek, xarid komissiyasi ishida ishtirok etuvchi shaxslarni majlislar vaqti va joyi haqida xabardor qilish va kun tartibi haqida ma'lumot berish;

xarid komissiyasi a'zolarini zarur materiallar bilan ta'minlash ishlarini tashkil qiladi;

ishtirokchilarning takliflarini tanlash yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini, shuningdek o'ziga taqdim etilgan boshqa ma'lumotlarni xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlash yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.

3-bob. Davlat xaridlarini rejalashtirish

16. Sud organlarida xaridlarni rejalashtirish va tovarning (ishning, xizmatning) boshlang'ich narxini (keyingi o'rinlarda – boshlang'ich narx) belgilash Ishlar boshqarmasi va Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti, departamentning hududiy bo'limlari (keyingi o'rinlarda – mas'ul xodimlar) tomonidan 1-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, mas'ul xodimlar boshlang'ich narxni belgilash uchun ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan ma'lumotlarni yig'adi, shu ma'lumotlar asosida boshlang'ich narxni shakllantiradi va belgilaydi hamda u to'g'risidagi ma'lumotlarni mas'ul kotibga taqdim etadi.

17. Davlat xaridlarini rejalashtirish har bir tovarlar (ishlar va xizmatlar) turi bo'yicha Ishlar boshqarmasi va Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti xodimlari tomonidan ilovaga muvofiq yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

18. Mas'ul xodimlar davlat xaridlarini rejalashtirishda quyidagilarni:

sud organlarining alohida tarkibiy bo'linmalaridan rejalashtiriladigan yil uchun taqdim etilgan talabnomalarni;

avvalgi yillarda tovar (ish, xizmat)larga qilingan xarajatlarni; mavjud tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ini;

rejalashtiriladigan yilda yangi tashkil etiladigan ish o'rinlari uchun talab etiladigan asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni;

Oliy sud rahbariyati topshirig'iga asosan xarid qilinishi lozim bo'lgan tovar (ish, xizmat)lar hisob-kitobini inobatga olishlari lozim.

19. Mas'ul xodimlar kelgusi moliya yili uchun tayyorlangan davlat xaridlarini rejalashtirishga oid hujjatlarni xarid bo'yicha mas'ul xodimga yil yakuniga qadar taqdim etadi.

20. Amalga oshiriladigan davlat xaridlari rejasiga quyidagi hollarda o'zgartirishlar kiritiladi:

tovar (ish, xizmat)larga qo'shimcha ehtiyoj tug'ilganda; tovar (ish, xizmat)lar narxlari o'zgarganda;

Oliy sud Rahbariyatining topshirig'iga asosan qo'shimcha tovar (ish, xizmat)lar xaridi nazarda tutilganda.

Bunda, amalga oshiriladigan davlat xaridlari rejasiga kiritiladigan o'zgarishlar vakolatli rahbar tomonidan tasdiqlangandan so'ng xarid jarayonlari amalga oshiriladi.

21. Davlat xaridlarini rejalashtirishga oid hujjatlar joriy yilda sud organlari xarajatlari smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasini shakllantirishda hamda ularga tegishli o'zgartirishlar kiritilishida inobatga olinishi lozim.

22. Davlat xaridlarining choraklik va yillik reja-jadvali xaridlar bo'yicha mas'ul xodim tomonidan qonunchilikda belgilangan muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

4-bob. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish

23. Sud organlarida rejalashtirilgan xaridlarni xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlariga (elektron do'kon, kichik qiymatli xaridning

soddalashtirilgan tartib-taomili, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari) ajratish taklifi xarid bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan tayyorlanadi hamda sud organi rahbariyati bilan kelishish uchun kiritadi.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari qonunchilik talablari asosida amalga oshiriladi.

25. Xarid bo‘yicha mas’ul xodim tovarlarning (ishlar, xizmatlar) davlat xaridi uchun tender hujjatlari va texnik topshiriqni kompleks ekspertizadan o‘tkazish va shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish va ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

5-bob. Xaridlarni amalga oshirish tartibi

1-§. Elektron do‘konda xaridlarni amalga oshirish

26. Davlat xaridlari elektron do‘kon vositasida amalga oshirilganda xarid bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalari o‘rganiladi, bunda, uning qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholashda ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalaniladi va sud organlari uchun zarur bo‘lgan tovar (ish, xizmat)larga mos kelgan ofertalarni kelishish uchun sud organlari rahbariyatiga kiritiladi.

Xarid bo‘yicha mas’ul xodim sud organlari tomonidan kelishilgan tegishli elektron do‘kondagi ofertani tanlaydi va narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

Xarid qilish tartib-taomillarining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan hollarda xarid bo‘yicha mas’ul xodim tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga u taklif qilgan narxdan pastroq asoslangan narx so‘rovini yuboradi.

2-§. Auksionda xaridlarni amalga oshirish

27. Davlat xaridlari auksion vositasida amalga oshirilganda xarid bo‘yicha mas’ul xodim auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon matnini ishlab chiqadi va kelishish uchun sud organlari rahbariyatiga kiritadi.

Xarid bo‘yicha mas’ul xodim maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtiradi.

Xarid bo‘yicha mas’ul xodim zarur hollarda alohida tovarlar bo‘yicha e’lon va buyurtmanoma matni davlat xaridlari elektron tizimida (auksionda)

joylashtirilishidan oldin tegishli mutaxassislarni jalb qilish to‘g‘risida taklif tayyorlaydi hamda sud organlari rahbariyati bilan kelishilgan holda xarid komissiyasi raisiga kiritadi.

28. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning va buyurtmanomaning matniga auksion predmetiga taalluqli bo‘lmagan va ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan talablar kiritilmasligi kerak.

3-§. Tanlash yoki tenderda xaridlarni amalga oshirish

29. Davlat xaridlarini tanlash yoki tender vositasida amalga oshirish xarid bo‘yicha mas’ul xodim tanlash yoki tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining, shartnoma va tanlash yoki tender o‘tkazish haqidagi e’lonning matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi.

Bunda, mazkur hujjatlar xarid komissiyasi raisining topshirig‘iga asosan tovar (ish, xizmat)larning turlariga qarab sud organlari rahbarlari bilan kelishiladi.

30. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to‘lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

ishtirokchilarga tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

qonunchilikka muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

31. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

qonunchilikka muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

32. Tasdiqlangan tanlash yoki tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tanlash yoki tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan mos ravishda kamida besh ish kuni yoki o‘n ikki ish kuni ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin davlat xaridlarining elektron tizimiga xarid bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan joylashtiriladi.

33. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon faqat tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Loyihalar va import kontrakllarini kompleks ekspertiza qilish markazining (keyingi o‘rinlarda – Markaz) ijobiy xulosasi olinganidan keyin mas’ul xodim tomonidan joylashtiriladi.

34. Xarid bo‘yicha mas’ul xodim xarid komissiyasining har bir a’zosiga va mas’ul kotibiga o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

35. Xarid komissiyasining har bir a’zosi o‘zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a’zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi.

Xarid komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tender taklifning tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa) muvofiqligini baholash;

tender taklifning texnik qismini baholash.

36. Tender g‘olibini aniqlash uchun tender takliflarini baholash tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

37. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi mas’ul kotibi tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o‘tkaziladi.

38. Miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan taklifning texnik qismi mezonlari bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash Xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

39. Xarid komissiyasi a’zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig‘ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi.

40. Tanlash natijalari bo‘yicha xarid komissiyasining tegishli majlis bayonnomasi xaridbo‘yicha mas’ul xodim tomonidan rasmiylashtirilgan bunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kunida joylashtiriladi.

Xarid bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to‘g‘risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

6-bob. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili

41. Summasi bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda g‘olib davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so‘rash yo‘li bilan sud organlari tomonidan aniqlanadi.

42. Sud organlari kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish asoslarini, shuningdek tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlar to‘g‘risidagi axborotni ular tuzilgan kundan e’tiboran besh ish kunidan kechiktirmay maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

43. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha shartnoma sud organlari tomonidan tanlangan ishtirokchining taklifida ko‘rsatilgan shartlar asosida hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narx bo‘yicha tuziladi.

7-bob. Shartnomani tuzish va bajarish

44. Sud organlari g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega.

Bunda, davlat xaridi bekor qilingan taqdirda xarid bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning

asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

45. Xarid qilish tartib-tamoillari asosida o'tkazilgan savdolar yakuni bo'yicha davlat xaridlarining ijrochisi bilan shartnomalarni tuzish va rasmiylashtirish ishlari xarid bo'yicha mas'ul xodim tomonidan tashkil etiladi va belgilangan tartibda G'aznachilik xizmati qo'mitasidan ro'yxatidan o'tkaziladi.

Bunda, shartnomalarni rasmiylashtirish va yuritish ishlari 3-ilovaga muvofiq ma'muriy reglament talablari asosida amalga oshiriladi.

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar kompleks ekspertizadan o'tkaziladi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Qonunchilikka muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot mas'ul xodim tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

47. G'aznachilik xizmati qo'mitasidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar yuzasidan to'lovlar Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va buxgalteriya tomonidan amalga oshiriladi.

48. To'lovlar amalga oshirilgandan so'ng tegishliligi bo'yicha mas'ul xodimlar davlat xaridlarining ijrochisi tomonidan tovar (ish, xizmat)larning belgilangan muddatda yetkazilishi (bajarilishi) yuzasidan nazoratni ta'minlaydi hamda yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)larning xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi.

49. Davlat xaridlarining ijrochisi tomonidan yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar Ishlar boshqarmasi va Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi.

50. Belgilangan talablarga muvofiq keladigan tovar (ish, xizmat)lar qabul qilinganidan so'ng davlat xaridlarining ijrochisiga yakuniy to'lovlar amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

51. Qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Nizom qoidalarini buzishda va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik yuzasidan aybdor bo'lgan davlat xaridlari jarayoni ishtirokchilari, qonunchilikka muvofiq tegishli javobgarlikka tortiladi.

52. Mazkur Nizomda xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishning tartibga solinmagan qismi amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi.